

Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 3 567,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 116,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati *	3 567,0	116,6
Guliston sh.	665,5	101,6
Shirin sh.	220,7	111,0
Yangiyer sh.	305,2	110,0
Boyovut	64,0	103,1
Guliston	84,0	108,5
Mirzaobod	773,2	140,6
Oqoltin	59,4	109,5
Sardoba	206,9	2,2 m.
Sayxunobod	88,7	107,4
Sirdaryo	255,2	109,4
Xovos	79,6	102,9

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmnini hisobga olgan holda.


Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarinining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,4 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 34,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,3 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 126,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	324,0	329,4	14,1
o'sish sur'ati, %	2,1 m.	134,6	185,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 286,2	894,3	140,0
o'sish sur'ati, %	109,0	113,1	123,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	579,0		
o'sish sur'ati, %	101,5		

Mavzuga doir ko'satkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-avgust oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 667,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 164,4 % ni va ularning umumiy hajmidagi ulushi 5,4 % ga ko'payib, 18,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 65,1 % to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etgan holda 2 320,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 16,2 % ni yoki 579,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik korxona va mikrofirma	Norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati *	667,5	2 320,5	579,0	164,4	111,3	101,5
Guliston sh.	28,6	565,1	71,8	155,8	103,2	80,2
Shirin sh.	163,5	53,5	3,7	116,9	95,0	146,5
Yangiyer sh.	0,0	291,0	14,2	0,0	108,2	167,8
Boyovut	13,4	32,1	18,5	3,5 m.	85,9	88,3
Guliston	30,0	42,5	11,5	6,5 m.	70,6	91,2
Mirzaobod	112,7	650,0	10,5	102,8	150,9	109,1
Oqoltin	9,6	40,9	8,9	117,5	115,4	82,9
Sardoba	131,8	62,2	12,9	42,8 m.	76,7	110,9
Sayxunobod	4,9	72,6	11,2	52,4	118,1	94,3
Sirdaryo	57,6	118,2	79,4	2,3 m.	77,8	141,5
Xovos	16,6	46,3	16,7	143,2	104,6	77,4

* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Sardoba tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 42,8 m.), Guliston tumanida (6,5 m.) va Sirdaryo tumani (2,3 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod tumanı (2024-yilning mos davriga nisbatan 150,9 %), Sayxunobod tumanı (118,1 %) va Oqoltin tumanida (115,4 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitarni-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlaringining statistik hisobi davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Xazratqulov
67 236-70-00 (2020)

Manzil:

